



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**



TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

**ZAMONAVIY BOSHLANG'ICH TA'LIM:
INNOVATSIYALAR, MUAMMOLAR VA
RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI**

**СОВРЕМЕННОЕ НАЧАЛЬНОЕ
ОБРАЗОВАНИЕ: ИННОВАЦИИ, ПРОБЛЕМЫ
И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ**

**MODERN PRIMARY EDUCATION:
INNOVATIONS, PROBLEMS AND
DEVELOPMENT PROSPECTS**

**mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman
materiallari to'plami**

19-20-may 2023-yil

I QISM

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

**ZAMONAVIY BOSHLANG'ICH TA'LIM:
INNOVATSIYALAR, MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH
ISTIQBOLLARI**

**СОВРЕМЕННОЕ НАЧАЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ:
ИННОВАЦИИ, ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ
РАЗВИТИЯ**

**MODERN PRIMARY EDUCATION: INNOVATIONS,
PROBLEMS AND DEVELOPMENT PROSPECTS**

**mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman
materiallari to'plami**

19-20-may 2023-yil

I QISM



Termiz-2023

Mazkur konferensiya to'plami Termiz davlat Pedagogika instituti Kengashining 2023-yil 5-maydagi № 8-sonli yig'ilishi qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

Tahrir hay'ati raisi:

Xasanov I.T.- Termiz davlat pedagogika
instituti rektori v. v/b, professor.

Tahrir hay'ati:

- | | |
|------------------|--|
| Kadirova O.X. | - Termiz davlat pedagogika. instituti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. |
| Tojiyev P.J. | - Termiz davlat pedagogika instituti. O'quv ishlari bo'yicha prorektor, texnika fanlari doktori, dotsent |
| Imanov B.B. | - pedagogika fanlari nomzodi, dotsent, Termiz davlat pedagogika instituti Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i |
| Norbo'tayev X.B. | - pedagogika fanlari doktori, dotsent, Termiz davlat pedagogika institute Boshlang'ich ta'lim fakulteti dekani |
| Qodirov Q.B. | - pedagogika fanlari doktori, dotsent, Termiz davlat pedagogika instituti Pedagogika va san'at fakulteti dekani |
| Qosimov Sh. | - pedagogika fanlari nomzodi, dotsent, Termiz davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim fakulteti dekani |
| Samiev A.S. | - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Termiz davlat pedagogika instituti O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i |
| Dusyarov X.Ch. | - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Termiz davlat pedagogika instituti Texnologik ta'lim kafedrası mudiri |
| Shabbazova D.R. | - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v/b, Termiz davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrası mudiri |
| Muxtarova L.A. | - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v/b, Termiz davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası mudiri |
| Berdiyeva M.M. | - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Termiz davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim nazariyasi kafedrası mudiri |
| Turamurotov U. | - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v/b, Termiz davlat pedagogika instituti Pedagogika kafedrası mudiri |
| Norboyeva S.M. | - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Termiz davlat pedagogika instituti Pedagogika kafedrası doktoranti |

Muharrirlar:

Shabbazova D.R.
Muxtarova L.A.

Texnik muxarrir:

Olloqulova F.U.

Dizayner:

Xaydarova M.X.

Manzil: 190111, Termiz shahar, Islom Karimov ko'chasi, 288^B-uy

Telefon: +998 76 221 93 71, Faks: (376) 221-93-71

web: <http://terdupi.uz/>. e-mail: info@terdimi.

2. Munavvarov A. K. Oila pedagogikasi. – T., “O‘qituvchi“, 2011.
3. Mahkamov U. Axloq–odob saboqlari. – T., “Fan“, 2004.
4. Xaydarov M. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning mehnat tarbiyasida xalq an‘analaridan foydalanish. – T., “Yozuvchi“, 2005.
5. To‘rayeva O. Odobnoma. – T., “O‘qituvchi“, 2006.
6. Qo‘ziyev Z. Sinf rahbari ishini tashkil etish va rejalashtirish.–Тошкент, “O‘qituvchi“, 2007. 253
7. Imomova M. Oilada bolalarning ma‘naviy–axloqiy tarbiyasi.– Тошкент, “O‘qituvchi“, 2014.
8. Yo‘ldoshev J.. O‘quvchi ma‘naviyatini shakllantirish. – Тошкент, “Sharq“, 2000.
9. Temirova Matluba Karim qizining “ Features Of The Formation Of Aesthetic Education In Primary Education” Journal of Positive School Psychology 2022. Vol.6, No.10
10. Temirova Matluba Karim qizining O‘quvchilarning estetik tarbiyasini shakllantirishda Alisher Navoiy asarlarining ahamiyati Synergy: Journal of ethics and governance Vol. 3 No. 1(2023)

INNOVATSION TA’LIM TIZIMINI TASHKIL ETISHDA PEDAGOGIK HAMKORLIK

Qaynarova Iqbol Valievna

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
mustaqil-tadqiqotchi*

Turli mamlakatlarda boshlang‘ich sinfda tahsil oluvchi o‘quvchi yoshlarning matnni o‘qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi PIRLS (The Progress in International Reading Literacy Study – xalqaro o‘qish savodxonligini o‘rganishdagi yuksalish) – xalqaro baholash tizimi har besh yilda bir marta o‘tkazishga mo‘ljallangan. Boshlang‘ich sinfda tahsil oluvchi o‘quvchi yoshlarning matnni o‘qish va tushunish darajalari sifatini baholashda tanqidiy o‘qish tamoyillarini amaliyotda qo‘llash ijobiy natijaga olib kelishi mumkin bo‘ladi. PIRLS dasturiga ko‘ra boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini ta‘minlash uchun, zamonaviy ta‘lim an‘anaviy ta‘lim rivojlanishidagi o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etish tamoyillarini qayta ko‘rib chiqish, ta‘lim sub’ekti bilish faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish tizimini tashkil etishga, ijodga o‘rgatishga, amaliy shaxsga yo‘naltirilgan ta‘limga o‘tish lozim.

PIRLS dasturiga ko'ra boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini ta'minlashga qaratilgan innovatsion faoliyatni tashkil etishdagi bir qator shartlarni aniqladik:

- O'quvchining o'z shaxsini namoyon qila olish qobiliyati, o'quv-bilish jarayonini o'quvchining shaxsiga yo'nalganligi innovatsion faoliyatga tayyorgarlikni tashkil etishda ustunlik qilishi;

- Bilim va ko'nikmalarni egallash jarayonida o'quvchining o'zini ijodiy namoyon etish xuquqi sifatida tanlash erkinligini kengaytirishni;

- Refleksiv jarayonlarni rivojlantirish va boshqalar.

Tanqidiy o'qish maqsadi o'quvchilardan muallifning maqsadini anglashni talab qiladi. Ularning har biri matndagi dalillardan xulosa qilishni talab qiladi:

Tanqidiy o'qish shunchaki diqqat bilan o'qish emas. Tanqidiy o'qish matndagi dalillarni faol tarzda topib, tahlil qilishni nazarda tutadi. Demak, tanqidiy o'qish - bu materialni chuqur tushunish maqsadida o'qish demakdir. Bu matnni o'qish jarayonida tahlil qilish va baholashni talab etadi. Badiy asarni tanqidiy ravishda o'qiyotganda, yozuvchining aslida nimani nazarda tutishini aniqlash muhim ahamiyatga egadir. Tanqidiy o'qish – bu tilni tahlil qilish usuli bo'lib, u ushbu matnda aks ettirilgan ma'no-mazmun va g'oyalarni chuqurroq o'rganishni o'z ichiga oladi. Chuqur o'qish uchun aks etgan kerakli fikrlarni sharhlab borib tanqidiy o'qishning tarkibiy qismidir. Tanqidiy o'qish yozuv amaliyoti singari fikrlarni mos keladigan dalillar bilan bog'lashni talab qiladi. Tanqidiy o'qish demak, qo'llanilgan tushunchalarni, shuningdek, dalillarning aniqligini va ahamiyatini sinchkovlik bilan o'rganishni anglatadi. O'qish va yozishning o'zaro bog'liq tabiatini e'tiborga olish juda muhimdir. O'qiganimizda turli xil ma'lumot va qarashlarga duch kelamiz, bu sizni o'z fikringizni qayta ko'rib chiqishga majbur qiladi. O'qish faol jarayondir va tanqidiy o'qishni o'rganishning eng yaxshi usuli yozuv amaliyotini o'rgatishdir.

2022

Boshlang'ichsinf o'qituvchilarining ijodiy tafakkurisiz va innovatsion faoliyatisiz, pedagogik hamkorlik innovatsiyalar tizimini tashkil etish mushkul. Bunda, pedagogning innovatsion faoliyatini shaxsning sifati, yaratish jarayoni va ijodiy faoliyat natijasi deb izohlash mumkin. Pedagogning ijodiy unumli shaxsi keng qiziqishlarga, pedagogik yangiliklarni tez o'qishga ega bo'ladi. O'qituvchi ta'lim mazmunini tushunishi va tafakkurni rivojlantiruvchi, nazariyaga, kasbiy va ijtimoiy tajribaga izlanuvchan yondoshuvchi ta'limning yangi texnologiyalaridan foydalana bilishi lozim. Pedagog kiritayotgan har qanday tushuncha o'quvchining oldingi tajribasi tuzilishini o'zgartirmog'i lozim. Ta'limning predmet-mazmunli o'quv natijasi bilan bir qatorda izlanish

faoliyati tajribasini refleksiv anglash ham alohida natija bo'lishi lozim. Shunday qilib, PIRLS dasturiga ko'ra boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini ta'minlashga qaratilgan innovatsion faoliyatni tashkil etish uchun innovatsion ta'lim jarayoni nazariy va amaliy tafakkurni shakllantirish, o'quvchi shaxsini rivojlantirishga yo'nalgan faol shaxslararo, o'qituvchi va o'quvchi, shuningdek, o'quvchilarning o'zaro dialogik munosabati sifatida qurilishi lozim. Buning uchun, o'quvchilarda ko'nikma va malakalarni shakllantirishga umumiy yondashishni ishlab chiqish hamda uni maktab o'qitish tarjibasini qo'llanish ko'nikmalarining rivojlantirish jarayonini bir qancha tezlashtirish va ko'proq o'quv vaqtini murakkabroq, ijodiy masalalarni hal etishga tejab qolish imkonini beradi. U yoki bu ishni bajarish mahoratini muvaffaqiyatli shakllantirish uchun hammadan avval o'qituvchining o'zi ish strukturasini tahlil qilishi, uni bajarishi qanday elementlardan (operatsiyalardan) tashkil etilishini aniq ko'z oldiga keltirishi (masalan, kuzatishlar, o'lchashlar, tajribalarni qo'yish va boshqa faoliyatlar qanday operatsiyalardan tashkil topishini aniq ko'z oldiga keltirishi) zarur.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, PIRLS dasturiga ko'ra boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini ta'minlashga qaratilgan innovatsion faoliyatni tashkil etish, o'qitishda mahoratlarni shakllantirishga umumiy yondashishni amalga oshirish mahoratlarini egallash jarayonini va ularni malakaga aylantirishni tezlashtiradi, murakkab ishlarning tarkibiy qismi bo'lib kiradigan ayrim operatsiyalarni bajarishning ratsional bo'lmagan usullari o'quvchilarda hosil bo'lishining oldini oladi, o'quv mehnatining ortiqcha vazifalarini kamaytiradi, ijodiy harakterdagi masalalarni hal etishga, diqqatni kuchaytirishga imkon beradi.

Adabiyotlar:

1. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: TDPU, 2006.

2. Sayidaxmedov N., Ochilov A. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. – T.: RTM, 1999.

3. Tolipov O., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Fan, 2006.

4. Ernazarova G.O., Isroilov Q.T. Redagogical development technology creativity of future teachers of history in the conditions of higher education/ *Academicia an International Multidisciplinary Research journal*, Vol.11., Vol 11, Issue 2, February 2021 (ISSN: 2249 - 7137) page № 532-536

5. Mullis, S., Martin, O., Foy, P., & Hooper, M. (2017). PIRLS 2016 International Results in Reading.